
Qo'shtepada mahallalar infratuzilmasi yanada yaxshilanmoqda

Qo'shtepa tumanida istiqomat qiluvchi aholining sifatli elektr energiyasiga hamda toza ichimlik suvga bo'lgan talabini qondirish maqsadida ayni kunlarda bir qator amaliy tadbirlar bajarilmoqda.

Xususan ichimlik suvi tarmog'i tortish uchun "Farg'ona suv ta'minoti" MCHJ tuman bo'limi tomonidan "Dehqonobod" mahallasi aholisiga 1200 metr hamda "O'rta O'qchi" mahallasi aholisi uchun 1000 metr suv quvurlari berildi.

Shuningdek, "Do'rmon" mahallasidagi Kichik bog' ko'chasida istiqomat qiluvchi aholi xonadonlarida elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida tuman elektr ta'minoti korxonasi hamda mahalla ahli bilan hamkorlikda amaliy ishlar olib borilmoqda.







2024-11-28 10:10:14